Texnika yo‘nalishlarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda o‘quv jarayonida yondashuvlarni o‘zgartirish zarur. Misol uchun qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo‘nalishlarida “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ishtirish mashinalari” fani o‘qitiladi. Bu fanni o‘qitishda amaliyot darslarini maxsus jihozlangan auditoriyalarida yoki sohaga oid tashkilotlarda ko‘chma dars sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi, qishloq xo‘jaligi sohalarida foydalaniladigan o‘ruv yig‘uv mashinalarini, jumladan, traktor, kombayn yoki shu kabi texnikalarning tuzilishi, extiyot qismlari, ish samardorligi, ishlab chiqaruvchilari va boshqa shu kabi ma'lumotlarni talabalarga ko‘rsatish, ularda tushunchalar, tasavvur paydo bo‘lishiga erishish uchun professor-o‘qituvchidan ko‘p mahorat talab etiladi. Agarda bu texnikalar yoki ularning maketlari mavjud bo‘lsa ko‘zlangan kasbiy kometensiya, bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish qulay bo‘ladi. Aks holda tasavvuri bo‘lmagan talabalarda ularni shakllantirish mushkil hisoblanadi. Bugun kunda bunday jihozlangan maxsus auditoriyalar yetarli emasligi ta'lim sifatini oshirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda.


NATIJA

Ta'limni raqamlashtirish, ta'lim platformalarini yaratish, virtual ta'lim ressurslarini ishlab chiqish dolzarb masaladir. Raqamli ko‘rinishdagi dasturiy ta'minot, fanlar bo‘yicha raqamli darsliklar, labaroatoriya ishlari, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa fanga oid bilim olishga mo‘ljallangan uslubiy-metodik ta'minotni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish zarur. Bugungi kunda ko‘plab fanlar bo‘yicha elektron darsliklar yaratilgan. Bu elektron darsliklar fanga oid ma'lumotlarni to‘liq qamrab olmagan.

Mazkur fan bo‘yicha video darslar, tajriba mashg‘ulotlari uchun stendlar, maxsus maketlar internet tizimidan qidirilganda ochiq ma'luotlar bazasida o‘zbek tilida ma'lumotlar topilmadi. Rus va ingliz tilida esa mashinalarning ishlash prinsiplari, turli xildagi mahsulotlarni yig‘ishtirish mashinalarining ishlash jarayonlari aks etgan video rolik topildi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ishtirish mashinalari” fanidan o‘quv jarayonlariga oid talabalar bilimini oshiruvchi, rivojlantiruvchi animatsion-uslubiy, virtual stend, multimediali dars ishlanmalari O‘zbekstonda yetarlicha ishlab chiqilmaganligini, ya'ni fan bo‘yicha ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Multimediali dars ishlanmalari dars sifati va samaradorligini oshirishi bilan birgalikda mustaqil ta'lim jarayonida ham yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ishtirish mashinalari fanini o‘qitishda raqamli dasturiy pedagogik vositalardan foydalanish natijasida maxsus jihozlangan auditoriyasiz ham talabalarga yetarli ma'lumotlar berish imkoniyat yaratiladi. Virtual tajriba stendi orqali talabalarga laboratoriya mashg‘ulotlarida bevosita virtual ko‘rinishdagi mashinalarning ehtiyot qismlari va ularning tuzilishlarini ko‘rish hamda ulardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Dasturiy pedagogik vositalar o‘quv jarayonida foydalanish samarali bo‘ladi. Shu bilan birgalikda mustaqil ta'lim jarayonida foydalanish orqali talabalarga fanga oid bilimlarni olishlari, ularni rivojlantirishlari, tekshirish imkoniyatlari ta'lim sifati va samaradorligiga olib keladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida berilgan topshiriqlarni talaba mustaqil ya'ni kompyuterdan foydalangan holatda

bajarishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa talabalarni fan bo‘yicha bilim ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ishtirish mashinalari fanini o‘qitishda raqamli dasturiy pedagogik vositalar.

Video darslar yordamida talabalar fan bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘qish, eshitish, ko‘rish kabi faktorlardan foydalanib fanni o‘zlashtirishi mumkin. Bunda talaba o‘rganayotgan mavzuni darslik, o‘quv qo‘llanma yoki boshqa manbaalardan o‘rganish davomida tushunmagan joyini video darslardan foydalanib mustahkamlashi mumkin.

Nostandart testlar yordamida talabalar fan bo‘yicha olgan bilimlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Testlarning juda ko‘p turlari mavjud, nostandart testlar esa talabalarni fan bo‘yicha bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Testlar rasm, video, raqamlar orqali berilishi talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Intellektual kompyuter o‘yinlari talabalarni fan bo‘yicha bilimlari rivojlantirish, izlanish, mantiqiy fikrlash, tasavvur eta olish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa o‘yinlarni fanga oid uslubiy ta’minot(darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa manbaalar) bilan o‘zaro bog‘lash orqali talabalarni kitob bilan ishlashga o‘rgatadi.

Multimediali dars ishlanmalar fan bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda qayta ishlanishi ma’lumotlarni jozibadorligi

va ko‘rgazmaliligini oshirishga xizmat qiladi. Albatta bu talabalarni e’tiborini tortishi, fanga oid bilimlarni olishga motivatsiya bo‘ladi.

Texnika OTMlarida an’anaviy yondashuv asosida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari shakllanishiga yo‘naltiriladi. Raqamli dasturiy pedagogik vositalar asosidagi yondashuvda esa tayanch, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalar rivojlantirilishiga yordam beradi.

Kasbiy bilimlarni berishda talabalarga motivatsiyalar yordamida berilishi pedagogik jarayonlarni rag‘batlantirish bilan birgalikda, auditoriyadagi muhitni faollashtiradi. Faol muhitda bilim olgan talabaning o‘zlashtirishi yuqori bo‘ladi.

Mutaxassislik fani bo‘yicha olingan bilimlarni nazorat qilish va baholashda esa an’anaviy yondashuvdagi kabi olishdan ko‘ra raqamli dasturiy pedagogik vositalar yordamida olish talabaga ham professor-o‘qituvchiga ham qulaylik yaratadi.

XULOSA

Texnika oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning raqobatbardoshligini, yetuk mutaxassis bo‘lishiga dars sifati ta’sir ko‘rsatadi. Sifatli talimni faqatgina zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bera oladi. Bugungi kun talablariga mos keladigan o‘qituvchilar, albatta, fanlar bilan birgalikda kompyuter texnologiyalari va xorijiy tillarni bilishlari lozim hisoblanadi. Chunki yaratilayotgan ilmiy yangiliklar, texnikalar, texnologiyalarni o‘zlashtirishda kompyuter dasturiy ta’minoti va xorijiy tilda berilgan uning ma’lumotnomasini tushuna olishi zarur hisoblanadi. Shunday ekan, zamon talabidagi kadrlarni tayyorlashda mutaxassislik fanlari, kompyuter texnlogiyalari va xorijiy tillarni o‘zaro integratsiyalash zamon talabi hisoblanadi. Zero raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularni jamiyatda amalga oshiradigan ishlari davlat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063

3. А.А.Каҳҳаров. Интенсиве Метҳодс оф Девелопинг Студентсъ Спатиал Имагинатион ин тҳе Теачинг оф Грапҳис Ссиэнсес. Анналс оф тҳе Романиан Сосиэтй фор Селл Биологй, 2021, ИССН:1583-6258, Вол. 25, Иссуе 4, 2021, Пагес. 11885 – 11892

4. Tuychiyev Xayrullo Ergashovich. Adaptiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish (“Professional ta’lim” yo‘nalishi misolida). Toshkent–2022, Avtoreferat, 51 b.

5. Каҳҳаров А.А Девелопинг студентсъ спатиал имагинатион ин тҳе теачинг тҳе субжест оф “дессриптиве геометрй анд энгинеэринг грапҳисс” витҳ тҳе ҳелп оф модерн компутер грапҳисс. Интернатионал сонгресс он модерн эдусатион анд интегратион. Вол.5 Спесиал Иссуе. http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1178

6. Каҳҳаров А. А., қизи Раҳимова Г. Е. Интенсиве Метҳодс оф Девелопинг Студентсъ Грапҳис Сомпетенсиэс ин тҳе Траининг оф Сомпетитиве Персоннел //Эуропеан Жоурнал оф Лифе Сафетй анд Стабилитй (2660-9630). – 2021. – Т. 7. – С. 38-44.

7. Abdubannayevich, Qahharov Abduraxim. "Intellektual o'yinlarni kompyuter yordamida tashkil etish yo'li bilan ta'lim samaradorligini oshirish." Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan) 2 (2018): 56-61.

8. Каххаров А.А. Особенности преподавания начертателной геометрии и инженерной графики с исползованийем современных компютерных технологий// Nauka-rastudent.ru. – Ufa: 2015. –№ 06 (18) /http://nauka-rastudent.ru/18/2733/.

9. Абдубаннаэвич К. А., Шарифжановна Қ. М. ТООЛС ФОР ДЕВЕЛОПИНГ СТУДЕНТСъДЕСИГН СКИЛЛС ИН ТЕЧНИСАЛ ФИЭЛДС //ИНТЕРНАТИОНАЛ ЖОУРНАЛ ОФ РЕСЕАРЧ ИН СОММЕРСЕ, ИТ, ЭНГИНЕЭРИНГ АНД СОСИАЛ ССИЭНСЕС ИССН: 2349-7793 Импаст Фастор: 6.876. – 2023. – Т. 17. – №. 08. – С. 1-6.

10. Абдубаннаэвич Қ. А. ТЕХНИКА ОТМ ТАЛАБАЛАРНИНГ ГРАФИК ЛОЙИҲАЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИНТЕНСИВ УСУЛЛАРИ //Ресеарч Фосус. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 274-279.

11. Кҳамракулов А. Организатион оф эффективе усе оф тхе АутоСАД феатуре ин теачинг дессриптиве геометрй //Жоурнал оф Пҳармасеутисал Негативе Ресултс. – 2022. – С. 2644-2648.

UO'T 371.2

TALABALAR BILMINI BAHOLASHDA O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHINI TEST YORDAMIDA NAZORAT QILISH

Yuldashev Muxsinjon Akramjonovich
t.f.f.d., PhD.
Namangan muhandislik-qurilish instituti

Annotatsiya. Maqolada talabalar bilim darajasini aniqlashda, fanlar mavzularini o'zlashtirishlari qay darajada ekanlini aniqlash uchun test natijalarini tahlil etish masalalari effektivligi ko'rib chiqilgan.

Аннотация. В статье рассматривается эффективность анализа результатов тестирования для определения уровня знаний студентов по темам дисциплин.

Annotation. The article discusses the effectiveness of the analysis of test results to determine the level of knowledge of students on subjects of disciplines.

Kalit so'zlar: test, kompyuter, bilimlarni baholash, elektron ba'za.

Ключевые слова: тест, компьютер, оценка знаний, электронная база.


Keywords: test, computer, knowledge rationing, electronic database.

O'quv jarayonining sifati o'z navbatida ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarini ongli va chuqur o'zlashtirishga, talabalarda mustaqil va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 5-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida»gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Namangan muhandislik-qurilish instituti "Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi montaji" kafedrasi professor-o'qituvchilari yuqoridagi qaror asosida test usulini tadbiq qilish va uning yangi qirralarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Bu jarayonda Binolarning energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari hamda Suyuqlik va gazlar mexanikasi kabi mutaxassislik fanlaridan 2-3 ta mavzular bo'yicha test savollari tuzib chiqildi. Har bir mavzu 3 qismga bo'linib, har bir qism bo'yicha 3 tadan test savollari tuzib chiqildi. Bu test savollar bankini yaratilib, maxsus dastur asosida talabalarni bilimini aniqlandi. Tuzilgan dasturga asosan test topshirishdan avval talaba o'z familiyasi, ismi, gurux raqami va fan nomini kiritadi. Dasturda elektron baza bo'lib, unda talabalarni olgan natijalari saqlanadi. Guruh talabalari birinchi qism bo'yicha to'la test savollariga kompyuter orqali javob bergandan so'ng, yuqoridagi dasturda olingan natijalarni tahlil qiladi va diagramma ko'rinishida umumlashtirib natija beradi. (1-rasm)



1-rasm. EXMda tuzilgan dastur asosida talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirishlarini umumiy o'rtacha ko'rsatgichlarini diagramma ko'rinishdagi shakli.

Guruh talabalarini test savollariga bergan javoblarining natijalariga asosan birinchi va ikkinchi mavzularining o'zlashtirganligini asoslash mumkin. Diagramma natijalariga, asosan birinchi va ikkinchi mavzularning birinchi qismlarini talabalar 60-75 foiz va ikkinchi va uchinchi qismlarini 50-80 foiz o'zlashtirishga erishgan. Shunga asosan ma'ruzachi birinchi va ikkinchi mavzularning aynan o'zlashtirmagan qismlariga e'tibor qaratadi, mustaqil ish mavzularini o'tishda ham aynan shu qismlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turdosh ketma-ket o'qitiladigan fanlarda semestrning boshida fan bo'yicha tuzilgan testlarni birinchi ma'ruzada talabalarga tarqatilib talabalarning bilish darajasini aniqlanadi va shu asosida fan bo'yicha tuzilgan kalendar tematik rejadagi mavzularga ajratiladigan soatlari qayta tahlil qilinadi va kalendar tematik qayta tasdiqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar oldindan biladigan mavzulari qaytarilishini oldini olinsa, talabalarda zerikish hamda bexuda vaqt ketishiga barham beriladi.

Talabalarni test yordamida o'zlashtirish jarayonini vaqt bo'yicha nazorat qilish jarayonida biz o'tilgan mavzular bo'yicha test sinovlarini yuqoridagi shartlar asosida amalga oshiramiz. Olingan natijalarga asosan talabalarning bilim darajasi va saviyasi mavzudagi ajratilgan qismlar bo'yicha aniqlanadi. Talabalarning mavzuni tushunish darajalarini aniqlangandan so'ng tuzilgan dasturdan foydalanib, test savollariga ketgan vaqt ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Tuzilgan dasturdan olingan qiymatlarni maxsus diagramma ko'rinishida keltirib o'tamiz. (2-rasm) Olingan natijadan tuzilgan test murakkablik darajasi aniqlanadi.



2-rasm. EXMda tuzilgan dastur asosida talabalarni mavzu bo‘yicha har bir test savollari uchun sarflangan vaqtning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlarini diagramma ko‘rinishdagi shakli.

O‘qituvchi tayyorlash, payvandlash va montaj ishlarining texnikasi va texnologiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish kabi mutaxassislik fani bo‘yicha test savollari tuzib chiqib, har bir mavzuga 4 tadan test savollari ishlab chiqdi. Biz yaratgan dastur Microsoft EXCEL da tuzilgan bo‘lib 20 ta savol 15 yoki 20 balli sistemada baholandi. Guruhda o‘rtacha 20-25 ta talaba bo‘ladi, mavzular bo‘yicha tayyorlangan test savollarini talabalarga tarqatamiz. Talabalar belgilangan vaqt ichida tayyorlangan test savollariga javoblarni maxsus javoblar varaqasiga belgilaydi. O‘qituvchi belgilangan savola va javob varaqalarini yig‘ishtirib oladi, to‘g‘ri javobga 1, noto‘g‘ri javobga 0 belgilari kiritadi. Talabaning familiya ismi yozilgan jadval qatorini to‘ldiradi. Tuzilgan dastur olingan natijani tahlil qiladi.


3- rasmda A- talabani mavzular bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi diagramma shaklida ko‘rishimiz mumkin.



3–rasm. Talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi.

Bu diagrammani tahlil qilganimizda talaba 2, 4- mavzularni past darajada o'zlashtirganligini, 1, 3- mavzularni yuqori darajada o'zlashtirganini ko'ramiz. Mavzular bo'yicha umumiy o'zlashtirish darajasi 50 % ni tashkil qildi. Talaba ushbu fandan yaxshiroq o'zlashtirishi uchun 2, 4- mavzulardan qo'shimcha mustaqil ta'lim olishi va adabiyotlar bilan ishlashi kerak. Natijada talabani fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ko'tariladi. Shu kabi qolgan talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirish darajalarini aniqlab, kerakli mavzular bo'yicha topshiriqlarini olishi mumkin.

4- rasmda talabalarni fan bo'yicha umumiy o'zlashtirish darajasini diagramma shaklida ko'rishimiz mumkin.



4–rasm. Talabalarni mavzular bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi.

Bu diagrammani tahlil qilganimizda talabalar 1, 2, 4- mavzularni past darajada, 3, 5- mavzularni qoniqarli darajada o'zlashtirganini ko'ramiz. Mavzular bo'yicha umumiy o'zlashtirish darajasi 49 % ni tashkil qiladi. O'qituvchi talabalarni guruh bo'yicha ushbu fandan umumiy o'zlashtirish darajasini ko'tarish uchun 1, 2, 4- mavzularni qayta ko'rib chiqib ilg'or pedagogika texnologiyalar asosida o'tishi lozim bo'ladi.

5- rasmda talabalarni har bir test savoli bo'yicha umumiy o'zlashtirish darajasini diagramma shaklida ko'rishimiz mumkin.



5-rasm. Talabalarni har bir test savoli bo'yicha umumiy o'zlashtirish darajasi

Bu diagrammani tahlil qilinganda test savollaridan 2,7 va 15- savollar murakkab tuzilganligi, 8,10 va 12 – savollar o‘ta sodda tuzilganli-gini ko‘ramiz. Murakkab va o‘ta sodda tuzilgan test savollarini qayta ko‘rib chiqamiz.

Oliy ta'lim muassasalari va texnikumlar va kasb-hunar maktablarida talabalarning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lsada, bu masalaga dolzarb pedagogik muammolar sifatida qaralmaydi. Umuman olganda, Oliy ta'lim va kasb-hunar talimida o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha muammolar o‘z yechimini to‘la to‘kis topmagan. Shu sababli talabalar bilimini baholash bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar soni unchalik ko‘p emas.

Biz taklif qilayotgan talabalarni bilimini va o‘zlashtirishini test usuli bilan tuzilgan dasturi yordamida tahlil qilish fan o‘qituvchisi gurux talabalarini o‘zlashtirishini to‘la nazorat qila oladi va talabalarga qaysi mavzular ustida ishlashi lozimligi to‘g‘risida maslahatlar berib boradi. Fan o‘qituvchisi diagrammadan olingan va talabalar past o‘zlashtirishga ega bo‘lgan mavzularni yangi pedagogik texnologiya asosida qayta ishlab chiqadi.

ADABIYOTLAR

1. Парпиев О. Т. Использование педагогических игр как фактор повышения эффективности обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 12-2. – С. 127-129.
2. Базарова Т. С., Хинзеева Н. П. Формирование коммуникативной компетентности иностранных студентов в иноязычной образовательной среде //Улан-Удэ: Изд-во Бурят. гос. ун-та. – 2018.
3. Ходжабоев А. Р., Аноркулова Г. М., Парпиев О. Т. Касбий таьлимда укитиш воситаларидан фойдаланиш методикаси. Услубий кулланма. – 2011.
4. М.Жаббаров Ж.Нодиров Таълим жараёнида муаммоли вазиятлар// “Ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизими учун педагог кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш сифатини таъминлашнинг илмий-услубий асослари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари Тошкент 2006 йил 244-245 б.
5. Н.Ходжиев. Ш.Жураев. Т.Қосимов. Талабалар билимини ўзлаштириш жараёнини вақт бўйича назорат қилиш// “Рақобатбардош кадрлар тайёрлашда мустақил таълим: жаҳон таълим тизими тажрибаси ва олий таълим муассасалари ҳамкорлиги ” Республика илмий-амалий конфренцияси материаллари тўплами НамМПИ Наманган 2010 йил 77-80 б.
6. А.Баҳодиров Н.Ходжиев Ш.Жураев Т.Қосимов Талабалар билимини тест ёрдамида назорат қилиш жараёнида ўтилган мавзуни ўзлаштиришни таҳлил қилиш// «Проблемы развития инженерных коммуникаций» Сборник материалов 4-международной конфренции Самарканд 2010 й. 143-145 б.
7. А.Баҳодиров, У.Махмудхужаев, Ш.Жураев Структура пеадгогический деятельности инженеров педагогов строительних дисциплин// «Проблемы развития инженерных коммуникаций» Сборник материалов 4-международной конфренции Самарканд 2010 й. 148-150 б.
8. А.Баҳодиров Н.Ходжиев Ш.Жураев Т.Қосимов Талабалар билимини тест ёрдамида назорат қилиш жараёнида ўтилган мавзуни ўзлаштиришини таҳлил қилиш// “Педагог кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш жараёнида таълим мазмунига инновацион технологияларни жорий этиш муаммолари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари Тошкент 2010 йил 24-25 б.
А.Баҳодиров Н.Ходжиев Ш.Жураев Т.Қосимов. Талабалар ўзлаштиришини тест ёрдамида назорат қилиш ва мустақил таълимнинг аҳамияти// “Педагогик жараёнларни ташкил қилиш” Республика илмий-амалий конфренцияси материаллари тўплами НамМПИ Наманган 2011 йил 159-160 б.

QISQA XABARLAR

UO‘T:331.1

ISHLAB CHIQARISH SANITARIYASI VA GIGIYENASI

Xidirova Dildora Zayniddinovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”
kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya. Ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasining asosiy vazifasi, insonga bevosita yoki bilvosita havo muhitida va ishlab chiqarish omillari orqali salbiy ta’sir etadigan xavfli va zararli omillariga qaratiladi.

Аннотация. В статьс дака основная задача производственной санитарии и гигиены ориентирована на опасные и вредные факторы, оказывающие негативное воздействие на человека прямо или косвенно в воздушной среде и через производственные факторы.

Annotation. The main task of industrial sanitation and hygiene is focused on dangyerous and harmful factors that have a negative impact on humans directly or indirectly in the air environment and through production factors.

Kalit so‘zlar: mikroiqlim, zararli, gazlar, changlar, sanitariya, gigiyena, shovqin, inson, texnik, harorat.

Ключевые слова: микроклимат, вредность, газы, пыль, санитария, гигиена, шум, человеческий, технический, температурный.

Key words: Microclimate, harmful, gases, dusts, sanitation, hygiene, noise, human, technical, tempyerature.

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishchilarga zararli ishlab chiqarish omillarining ta’sirini oldini oluvchi vositalar, sanitar-texnik, gigiyenik va tashkiliy tadbirlar tizimidir.

Ishlab chiqarish gigiyenasi - ishlab chiqarishdagi zararli gazlar, changlar, bug‘ va bug‘ tumanlari ta’siri natijasida vujudga keladigan kasb kasaliklarining oldini olishdan iborat.

Ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasining asosiy vazifasi, insonga bevosita yoki bilvosita havo muhitida va ishlab chiqarish omillari orqali salbiy ta’sir etadigan xavfli va zararli omillariga qaratiladi.

Insonga havo orqali - noqulay mikroiqlim, changlar, gazlar, shovqinlar, infra va ultratovushlar ta’sir etsa, ish joyida - yoritilganlik, titrash, elektromagnit to‘lqinlar, infraqizil, ultrabinafsha, radioaktiv va boshqa nurlanishlar bevosita ta’sir etadi.

Ishlab chiqarish sanitariya va gigiyenasi maqsadi - inson organizmiga xavfli va zararli moddalarning tushishini kamaytirishdan iborat.

Ishlab chiqarishdagi mutaxassislarning vazifasi esa ish sharoitini xavfsizlik standartlari va sanitariya meyorlari talablari bo‘yicha ta’minlashdan iborat.

Zararli ishlab chiqarish omili - ishlab chiqarish omili bo‘lib, uning ma’lum sharoitlarda ishchiga ta’siri kasallikka yoki mehnat qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish zonalari (texnosfyera)da mikroiqlim muhiti havo harorati, (°C), havoning nisbiy namligi (%), havo bosimi, mm. simob ust. yoki Pa, havo harorati yo‘nalishi, issiqlik nurlari kabi omillar orqali belgilanadi.

Mikroiqlim omillari insonning mehnat faoliyatiga va uning sog‘lig‘iga juda katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki mikroiqlim omillarining bir vaqtda hammasi deyarli ta’sir qiladi. Masalan, havoda nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og‘ir sharoitlarni vujudga keltiradi. Bundan ko‘rinadiki, ishlab chiqarishning ob-havo omillari inson organizmidagi issiqlik almashuvi (tyermoruglyatsiya) buzilishiga sabab bo‘ladi. Organizmda issiqlikni boshqarilishi fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana harorati bir xil chegarada (36-36,6°C) saqlab turish demakdir.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, havo harorati +30°S dan yuqori bo‘lgan muhitda, jismoniy ish bajarish jarayonida, inson tanasidan soatiga 1-1,5 litr suv tyer bilan ajralib chiqadi va birgalikda 5-10 gramm miqdorida har xil tuzlar va S va V vitaminlar yeritma holatida chiqib ketadi. Bunda, albatta, tananing salqin haroratli suyuqliklarga bo‘lgan ehtiyoji oshadi. Agar ushbu talab o‘z vaqtida qondirilmasa, mushaklardan chiqayotgan issiqlik quvvati ma’lum miqdori tanada yig‘ilib qoladi va borgan sari ko‘payib, natijada haroratning almashinuv jarayoni buziladi, kishi o‘zini holsiz seza boshlaydi, chunki bunday hollarda tomirlarda qon quyuqlashadi va yuraking qon haydash qobiliyati ancha susayadi.

Insonning tashqi muhit bilan harorat almashuv balansi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$Q=Q_t+Q_k+Q_{izl}+Q_{isp}+Q_v, \quad (3.1)$$

bunda: Q_t- inson kiyib yurgan kiyimi orqali tashqi muhitga byerayotgan harorat; Q_k - inson konvensiya tufayli tashqi muhitga chiqarayotgan harorat; Q_{izl} - inson nurlanish orqali tashqi muhitga chiqarayotgan harorat Q_{isp} - inson tanasidan chiqan namning bug‘lanish orqali tashqi muhitga chiqarayotgan harorat; Q_v-nafas olgan havoni qizdirishga (sovutishga) sarflangan harorat.

Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy holatda bo‘ladi.

Kimyoviy tashqi muhitga moslashuv - organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovushida esa modda almashuvini oshirishi mumkin.

An’anaviy sharoitda kuchsiz havo harorati bo‘lgan holda harakatsiz inson organizmi infraqizil nurlanishi orqali organizm ishlab chiqargan 45% issiqlikning 30% konveksiya (issiq havo bilan sovuq havo almashish jarayoni) orqali, 15% tyerlash orqali yo‘qotishi mumkin. Masalan, 1 gramm tyerning bug‘lanishi uchun 2,5 kJ (0,6 kkal) issiqlik sarflanishi mumkin. Organizmdan tyer bilan chiqadigan suv miqdori tashqi muhit haroratiga va bajarilayotgan ish turiga bog‘liq bo‘ladi.

Tyer bilan chiqqan suv bug‘lanishi, havo harakatiga va nisbiy namlikka va kiygan kiyim matyerialiga bog‘liq. Agar issiqlik yo‘qotilishi faqat tyerlash orqali amalga oshirilayotgan sharoitda havoning nisbiy namligi 75-80% dan ortiq bo‘lsa, suv bug‘lanishi qiyinlashadi va organizm tashqi muhitga moslashuvi buzilib, organizmda issiqlik ko‘tariladi. Kuchsiz issiqlikda, tana harorati meyorida bo‘lishi, sovuq haroratda esa, nafas olishning tezlashishi va qon tomirlari tizimida o‘zgarishlar sodir bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Agar kuchli issiqlash yuz byersa, unda nafas olish qiyinlashadi, kuchli bosh og‘rig‘i kuzatiladi, bosh aylanadi, nutq qiyinlashadi. Inson tanasida issiqlik ko‘tarilishi oqibatida tyerlash jarayoni sodir bo‘ladi, natijada tyer bilan ko‘p miqdorda kyerakli tuzlar chiqib ketadi. Bunday holatda tyeri hujayralaridagi tuz miqdorining kamayishi sababli, tanadagi namlikni (suvini) ushlab turish xususiyati susayadi. Natijada inson tinmay iste’mol qilayotgan suvni organizm chiqarib yuboradi, organizm suvga bo‘lgan ehtiyojini keltirib chiqaradi. Oqibatda, organizm suv bilan zaharlanishiga sabab bo‘ladi.

Havo namligi, havodagi suv bug‘lari miqdori bilan aniqlanadi. Havoning nisbiy namligini (V*)* deb - havoning «absolyut» namligining (A), «maksimal» namligiga (M) bo‘lgan nisbatining foizdagi ifodasi bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$B=\frac{A}{M}100\%. \quad (1)$$

bunda, A - havoning «absolyut» namligi, gr/m; M - havoning «maksimal» namligi, gr/m.

Inson tanasi 0,1 m/s tezlik bilan harakatlayotgan havo harakatini sezishi mumkin. Oddiy havo haroratida yengil esayotgan havo harakati insonga yoqimli bo‘lsa, kuchli havo harakati, ayniqsa, past haroratda inson tanasiga yoqimsiz bo‘lib, tana haroratining pasayishi kuzatiladi. Asosiy mikroiqlim omillaridan yana biri, havo bosimidir. Havo bosimi, havoning tarkibidagi asosiy komponentlaridan biri bo‘lgan kislorod va azotning bosimiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holat esa, insonning batafsil nafas olishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.


Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonalaridagi har xil qurilma-uskunalar va ishlov byerilayotgan matyeriallar, moddalardan tarqaladigan issiqlik nurlari va quyoshdan kelayotgan infraqizil va ultrabinafsha nurlaridir. Bu nurlarning inson oraganizmiga ta’siri uning ta’sir vaqti, joyi, to‘lqin uzunligi, enyergiya oqimi va qalinligiga bog‘liqdir.

Inson uzoq vaqt ushbu nurlar ta’sirida yoki yuqori haroratda bo‘lishi, uning organizmda issiqlik balansining buzilishi, tana harora-tining ko‘tarilishi, yurak - qon tomirlari va nafas olish tizimlarida salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Natijada issiqlik kasalligi (gipyertoniya) bilan kasallanib qolishi mumkin.

Qizigan uskunalarda ishlayotgan ishchilar doimiy yoki doimiy bo‘lmagan ish joylari issiqlik enyergiyasi - 35 Vt/m^2 bo‘lganda, tananing nurlanish faolligi 50%, issiqlik enyeriyasi 70 Vt/m^{2}bo‘lganda, tana nurlanish faolligi 25-50%, issiqlik enyergiyasi 100 Vt/m^2 bo‘lganda, tana nurlanish faolligi 25 % dan oshmasligi lozim.

Havo harorati, nisbiy namlik, havo harakati tezligini o‘tirgan holda poldan balandligi 1,0 m yoki turgan holda 1,5 m bo‘lgan masofada o‘lchanadi.

Havo haroratini aniqlash - ish joyi havosining haroratini aniqlash uchun simobli va spirtli tyermometrlar ishlatiladi. Bundan tashqari, ma’lum vaqt oralig‘ida havoning o‘zgarishini hisobga olib, yozib borish uchun M-16C, M-16H – rusumli tyermografdan ham foydalaniladi.




1- rasm. TM-1 - rusumli meteorologik tyermometr

Havoning nisbiy namligini aniqlash uchun psixrometr gigrometr va gigrograflardan foydalaniladi.



2- rasm. Masofadan o‘lchash psixrometri.



3 -rasm. Gigrometr**.**


Aspiratsion psixrometri (asman) - eng ishonchli hisoblagichlardan biri hisoblanadi, chunki undagi tyermometrlar ularni nafaqat shikastlanishdan, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan ham himoya qiluvchi maxsus himoya ramkada joylashgan. Bunday qurilmadagi sinov havosining oqimi doimiy tezligi taxminan 2 mm/s bo‘lishi kyerak.

Nisbiy namlik psixometrik formula bilan aniqlanadi:

$$e = E\text{-}A\cdot P(t\text{-}t_c)\ . \qquad (2)$$

bunda: YE - nam «tyermometr» bilan ko‘rsatilgan haroratdagi maksimal bug‘ bosimining ko‘rsatkichi; A - koeffitsiyent. Uning qiymati tyermometrning moslamasiga, shuningdek, tyermometrning rezyervuariga yaqin joylashgan havo oqimining tezligiga bog‘liq; t- an’anaviy tyermometr tomonidan aniqlanadigan havo harorati; R - havo bosimi.

Zamonaviy anemometrlar havo massalarining tezlik xususiyatlaridan tashqari, havo haroratini ham o‘lchash imkoniyatiga ega. Mexanik anemometrlar chashkali, ultratovushli va qanotli turlarga bo‘linadi.





4 –rasm.Chashkali anemometr. 5 rasm. Xabar byeruvchi anemometr.

U qanot va himoyalangan halqa bilan o‘ralgan holda, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki o‘lchash moslamasiga qattiq sim bilan ulangan. Ushbu konstruksiya kirish qiyin bo‘lgan joylarda havo tezligini qayd etish uchun foydalanishga imkon byeradi.

Xabar byeruvchi anemometrlar inson faoliyatining ko‘plab sohalarida - metrologiyada turli xonalarda havo oqimining tezligini nazorat qilishda, shamollatish tizimlarida va ishlab chiqarishning sanitariya meyorlariga mos kelishini tekshirish uchun ishlatiladi (3.5-rasm).


Anemometrlar yordamida havodagi shamol tezligi qo‘yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n = \frac{n_2 - n_1}{t} . \quad (3)$$

bunda, n_1 va n_2 – anemometrning boshlang‘ich va oxirgi o‘lchagandagi ko‘rsatkichi, t - o‘lchangan vaqti.

Issiqlik enyergiyasi nurlanishi aktinometr yordamida o‘lchanadi. Aktinometr - to‘g‘ridan to‘g‘ri quyosh radiatsiyasi intensivligini o‘lchaydigan asbob. Uning ishlash prinsipi tushayotgan radiatsiyani qoraygan sirtga singdirish va enyergiyasini issiqlikka aylantirishga asoslangan.

Mixelson aktinometrining ishlash prinsipi temir va invar bilan zichlangan bimetalik plastinkaning (1) qoraygan joyini quyosh nurlari qizdirishga asoslangan. Temir qiziganda cho‘ziladi, invar esa o‘zgarmaydi, shuning uchun plastinka egiladi. Bukilish kattaligi quyosh radiatsiyasi intensivligini o‘lchash imkonini byeradi. Bu xolatni mikroskop (3) yordamida plastinka (1) oxirida joylashgan kvars (2) ipining harakatini kuzatish orqali aniqlash mumkin.



6- rasm Mixelson aktinometri.

Mikroiqlim sanitar meyor ko‘rsatkichlari (SanQvaN) 0324-16. “Ishlab chiqarish xonalarida mikroiqlim holati sanitar-gigiyenik meyorlari” va GOST 12.1.005-88 “MXST. Ishchi hudud havosi. Ishchi hudud havosiga bo‘lgan umumiy sanitar-gigiyenik talablari asosida belgilanadi. Ishlab chiqarish xonalaridagi mikroiqlim ko‘rsatkichlarining optimal va ruxsat etilgan meyorlarini belgilash bajarilayotgan ish toifasiga va yil fasliga bog‘liq ravishda bo‘ladi.

Yilning sovuq mavsumida tashqaridagi o‘rtacha havo harorati +10°C ga teng va undan past, issiq mavsumda esa +10°C va undan yuqoriligi bilan tavsifladi.

Ishlab chiqarish xonalarida va boshqa asab, his tuyg‘u yuklamasi sarflanadigan ish joylarida miqroiqlim ko‘rsatkichi optimal ta’minlangan bo‘lishi lozim. Bu ko‘rsatkichlar quyidagicha: havo harorati 22....24 ^{0}S, nisbiy namlik 40.....60%, havoning harakat tezligi 0,1....0,2 m/s. Boshqa ishlab chiqarish xonalaridagi miqroiqlim ko‘rsatkichlari sanitar nazorat organlari tomonidan belgilanadi.

Ishlab chiqarish xonalaridagi mikoroiqlim sharoitini meyorlashtirish ishning yuklanishiga ham bog‘liq.

Yengil jismoniy ishlar (I toifa) - o‘tirib, tik turib yoki yurish bilan bog‘liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy zo‘riqish yoki yuk ko‘tarishni talab qilmaydigan ishlar (enyergiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J)) ni tashkil etadi.

O‘rtacha og‘irlikdagi jismoniy ishlar (II toifa) - soatiga (150....250 kkal) yoki (172....293 J) enyergiya talab etiladigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og‘ir bo‘lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlari kiradi.

Og‘ir jismoniy ishlar (III toifa) – muntazam jismoniy zo‘riqish, xususan, og‘ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muntazam ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish va ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar kiradi. Bunda enyergiya sarfi soatiga 250 kkal (293 J) dan yuqori bo‘ladi.

Optimal mikroiqlim ko‘rsatkichi - inson uzoq vaqt va doimiy ta’sir qilgan tashqi muhitga moslashishi buzilmasdan, organizmning meyoriy faoliyati va issiqlik haroratini saqlaydigan mikroiqlim ko‘rsatkichlari yig‘indisi tushuniladi.

ADABIYOTLAR

1. Карнаух, Н. Н. Охрана труда. Учебник для прикладного бакалавриата / — М. : Издательство Юрайт, 2014. - 380 с.

2. Teshayev, N, Toychiyev N, Akbyerdiyev A. Mehnat huquqlari: savollar va javoblar: qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturi. — T: Baktria press, 2013. - 120 b.

3. Yo‘ldashev O.R., Usmonov U., Qudratov O.Q. Mehnatni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanm. T.: “Mehnat”, 2001. – 184 b.

4. Xidirova D., Muradov S. O ‘zbekiston respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 167-172.

5. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich. Khidirova Dildora Zayniddinovna. Main Crityeria of Quality and Efficiency of Education In the Highyer Education System // EXCELLENCIA: INTYERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION. 2023. 450-453 http://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/144

6. TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI. X.D.Zayniddinovna. Intyernational journal of scientific researchyers (IJSR) INDEXING 3 (2). 2023.

7. K.D. Zayniddinovna. The Importance of the Design of the Pedagogical Process in Improving the Quality of Education // Journal of Pedagogical Inventions and Practices 7, 2022. 261-266.

8. Д.З. Хидирова. DESIGNING THE PEDAGOGICAL PROCESS IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL INNOVATIONS // Современное образование (Узбекистан), 2021. 39-46.

QISQA XABARLAR

UO‘T. 2964

TOSHKENT METROPOLITENI IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

Norkulov Suxrob Turakulovich
“Toshkent Metropoliteni” DUK boshlig‘ining ilmiy-innovatsion rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - Toshkent davlat transport univyersiteti prorektori
E-mail: sni.kor@bk.ru

Annotatsiya. O‘zbekiston mustaqillikka yerishganidan so‘ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma’naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o‘ziga xos hamda o‘ziga mos yo‘lini tanladi. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga yerishish, jahon bozorida milliy mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini ta’minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Аннотация. После обретения независимости Узбекистан выбрал уникальный и подходящий путь развития и обновления в экономической, общественно-политической, идеологической и духовной сферах. Устойчивое развитие экономики страны, достижение устойчивых темпов экономического роста, обеспечение конкурентоспособности нашей национальной продукции на мировом рынке, повышение уровня жизни и благосостояния нашего народа входят сегодня в число важнейших задач.

Abstract. Aftyer gaining independence, Uzbekistan chose a unique and suitable path of development and renewal in the economic, socio-political, ideological and spiritual sphyeres. Sustainable development of the country's economy, achieving sustainable economic growth rates, ensuring the competitiveness of our national products on the world market, improving the standard of living and well-being of our people are among the most important tasks today.

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asoslariga e’tibor byeradigan bo‘lsak, cheklangan ta’riflar bo‘yicha ko‘rilgan zararlarni qoplash, xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modyernizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hamda metropolitenda yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini respublika va boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashni ko‘rishimiz mumkin.

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida cheklangan ta’riflar bo‘yicha ko‘rilgan zararlarni qoplash O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I-sonli Qonuni:

12-modda. Yo‘l qo‘yiladigan doiradagi ta’riflarni belgilash va ularga rioya etilishi ustidan nazoratni uyushtirish mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari doirasida belgilanadi;

15-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘l qo‘yiladigan doiradagi ta’riflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlari ko‘rsatish munosabati bilan ko‘rgan zarari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli mahalliy budjet hisobidan qoplanishi, shuningdek, shaharda yo‘lovchilar tashish sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari, metropoliten qurilishi, qoida tariqasida, davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizomi tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilishi belgilangan:

fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar byerish orqali qoplash;

cheklangan ta’riflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash.

Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionyerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash.

Nizomga muvofiq Toshkent metropolitenida bepul yuruvchi va imtiyozli yo‘lovchilarni tashishi munosabati bilan olinmay qoladigan daromadlarini, shuningdek, cheklangan ta’riflar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan ko‘riladigan zararlarini subsidiyalar byerish orqali qoplash har oyda, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

Tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini qoplashga mablag‘lar ajratish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarni har yili xatlovdan o‘tkazish natijalari - shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilarni tashishda, har oyda teng ulushlar bilan moliyalashtirgan holda;

shahar yo‘lovchi transportini boshqarish organining oylik transportda yurish imtiyozli kartochkalarining amalda sotilishi to‘g‘risidagi axboroti - transportda imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilarni tashishda.

Choraklik moliya hisobotini topshirgandan keyin dastlabki o‘n kun mobaynida tashuvchi mahalliy davlat hokimiyati tegishli organi bilan oldingi chorakdagi ish yakunlari bo‘yicha qoplanishi kyerak bo‘lgan amalda ko‘rilgan zararlar hajmini kelishadi, bunda liniyadagi tushumning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash, shuningdek, ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish bo‘yicha qabul qilingan tadbirlar hisobga olinadi.

Tashuvchilar ko‘rgan zararlarni qoplash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar summasi tushumning to‘liq yig‘ilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, amaldagi daromadlar, shuningdek fuqarolar ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash summasi bilan amaldagi xarajatlar o‘rtasidagi tafovut tarzida aniqlanadi, bunda ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish tadbirlari hisobga olinadi.

Bunda ko‘rilgan zararlarni qoplash summasi qonun hujjatlariga muvofiq shahar yo‘lovchi tashish transportida bepul va imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning ayrim toifalari uchun chegirishlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ushbu miqdorlar o‘rtasidagi tafovut nol yoki ijobiy (tashkilotlarning foydasi) bo‘lgan taqdirda ko‘rilgan zararlar qoplanmaydi.

Tashuvchilar ko‘rgan zararlarni qoplash miqdoriga yoqilg‘i-moylash matyeriallari, elektr enyergiyasi, asosiy ehtiyot qismlar va matyeriallar narxlari o‘zgarganda hamda cheklangan ta’riflarni shakllantirishda nazarda tutilmagan eng kam oylik ish haqining miqdori o‘zgarganda, shuningdek, liniyadagi tushumning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash va ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish tadbirlari hisobga olingan holda tuzatishlar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining «Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashishda yo‘lkira haqini to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish to‘g‘risida» 2019-yil 25-noyabrdagi 948-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining «Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Unga ko‘ra quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi:

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda shaharda yo‘lovchilarni muntazam tashish

transportining ta’rif rejalari tarkibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi byerildi;

Umumiy foydalaniladigan transport — yo‘lovchilar va yuk tashish uchun mo‘ljallangan jamoat yyer usti va yyer osti transporti (avtobus, elektrobus, trolleybus, tramvay, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar, metropoliten);

oylik transportda yurish kartochkasi — harakatlanish hududi chegaralarida va ushbu hujjat amal qiladigan davr mobaynida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy foydalaniladigan transportda (avtobus, elektrobus, trolleybus, tramvay va metropolitenda) yurish imkoniyatini olishga yo‘lovchining huquqini tasdiqlaydigan, qat’iy hisobda turadigan hujjat. Oylik yurish kartochkasi ikki turga — umumiy va imtiyozli kartochkaga bo‘linadi:

umumiy oylik transportda yurish kartochkasi — yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilardan tashqari, umumiy foydalaniladigan transportning barcha turlarida yo‘lovchilar yurishini nazarda tutadigan, qat’iy hisobda turadigan hujjat»;

quyidagi mazmundagi o‘n beshinchi va o‘n oltinchi xatboshilar qo‘shilsin:

transport kartasi — yo‘lovchilar tomonidan umumiy foydalaniladigan transportda (yo‘nalishsiz taksidan tashqari) yurganlik uchun amaldagi ta’rif asosida yo‘l haqini to‘liq to‘lash uchun mo‘ljallangan shaxsiylashtirilmagan ko‘p marotabalik debet to‘lov kartasi. Transport kartasining depozit hisob raqami pul mablag‘larini tushirish orqali to‘ldiriladi. Transport kartasidagi ta’rif rejalarining to‘liq qiymati umumiy foydalaniladigan transportdagi cheklangan ta’rifni, chegirma va imtiyozlarni hisobga olgan holda, yurishlar soniga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi;

imtiyozli transport kartasi — umumiy foydalaniladigan transportda (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksidan tashqari) avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi opyeratori ma’lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan yo‘lovchiga transportda bepul yoki imtiyozli yurish huquqini kafolatlaydigan, transportdan foydalanish soni va bir transportdan boshqasiga chiqish soni cheklanmaydigan shaxsiylashtirilmagan va(yoki) shaxsiylashtirilgan transport kartasi»;

Imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilar (pensionyerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, talabalar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar hamda texnikumlar o‘quvchilari) tomonidan imtiyozli transport kartalari orqali to‘lovlar umumiy foydalaniladigan transportning (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksidan tashqari) amaldagi ta’riflarning 50 foizlik imtiyozini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar byerish orqali qoplash;

xarajatlarni moliyalashtirish, joriy oyning 5-sanasigacha, avans to‘lovlarini teng holda tasdiqlangan budjet parametrlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Chorak yakunlariga ko‘ra, oldindan qilingan to‘lovlar va ko‘rilgan zarar hajmlari keyingi davr to‘lovlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini inobatga olgan holda solishtiriladi;

Navbatdagi moliya yili uchun ushbu Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan maqsadlarga mablag‘larning aniq summasi asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq aniqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladi;

Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar byerish orqali qoplash har oyda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida amalga oshiriladi;

Joriy oyning 5-sanasiga qadar tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan mahalliy budjet parametrlariga kiritilgan tashuvchilarning prognozlashtirilgan zarar ko‘rsatkichlariga muvofiq avans to‘lovlari amalga oshiriladi. Chorak yakunlariga ko‘ra hisobot davri uchun yuzaga kelgan avans to‘lovlari bilan tashuvchilarning amaldagi ko‘rgan zararlari miqdoridagi farqiga, navbatdagi avans to‘lovlarini amalga oshirishda tuzatishlar kiritiladi.

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy

asosi sifatida xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modyernizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 17-mart 170-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modyernizatsiya qilish bo‘yicha 2 973,0 ming.AQSh dollari hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-martdagi 190-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modyernizatsiya qilish bo‘yicha 5 500 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-fevraldagi “2016 - 2019 yillar davrida "Toshkent metropoliteni" DUK poezdlarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, harakatdagi tarkibni zamonaviylashtirish va zamonaviy muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlash chora-tadbirlari kompleksi to‘g‘risida”gi 24-sonli qaroriga asosan “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasida xizmat muddati tugagan 96 ta vagonlarni davlat budjeti hisobidan ta’mirlash va modyernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 50 400 ming. AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan (1-jadval).

1-jadval

Metro vagonlarni modyernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirilgan mablag‘	
				ming.doll	mln.so‘m
1.	VMQ-170-f (17.03.2014 y.)	6	2 973,0	2 973,0	6 710,7
2.	VMQ-190-f (30.03.2015 y.)	10	5 500,0	5 500,0	13 696,1
3.	VMQ-24 (03.02.2016 y.)	96	50 400,0	30 740,6	170 201,9

Respublikada ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy shyeriklik asosida yangi infratuzilma ob’ektlarini barpo etish; shu asosda aholi bandligini ta’minlash va ularning turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-dekabrdagi PQ-4936-son qaroriga asosan 28 ta metro vagonlarini modyernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 92 000 mln.so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini izchil rivojlantirish, qishloq va mahallalarni yanada obod qilish, joylarda qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qaroriga asosan 16 ta metro vagonlarini modyernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 44 700,0 mln.so‘m hamda yangi metro vagonlarini ishlab chiqarish uchun 80 000,0 mln.so‘m jami 124 700,0 mln.so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan (2-jadval).

2-jadval

Metro vagonlarni modyernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi, mln.so‘m

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirish	
				yil	mln.so‘m

1.	PQ-4936 (28.12.2020 y.)	28	92 000,0	2021	92 000,0
2.	PQ-98 (22.01.2022 y.)	8	44 700,0	2022	44 700,0
		20	80 000,0		80 000,0

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida metropolitenda yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini Respublika va boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashni Toshkent shahrining transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, yo‘lovchilar oqimini ko‘paytirish, Toshkent metropolitenining Yunusobod liniyasida yo‘lovchilar tashish darajasi va sifatini oshirish, shahar yyer usti jamoat transportiga yuklamalarni kamaytirish, shuningdek, ekologiya va atrof muhit muhofazasini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasi ikkinchi bosqichini qurish» loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016 yil 7-noyabrdagi PQ-2653-sonli qaroriga asosan Quyidagilar hisoblab chiqilgan qiymati ekvivalentda 124,8 mln AQSh dollari bo‘lgan loyihani amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib belgilangan.

Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi parametrlarida 2017-2019-yillar davomida har yili teng ulushlarda nazarda tutiladigan 72,0 mln. AQSh dollari ekvivalentidagi markazlashtirilgan investitsiyalar;

import asbob-uskunalari, matyeriallar va butlovchi buyumlarni xarid qilish, jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarning loyiha hujjatlari ekspyertizasini o‘tkazish, qurilishni kuzatib borish va texnik jihatdan nazorat qilish, zarur hollarda xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus qurilish-montaj ishlarini bajarish bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash, shu jumladan loyihani amalga oshirish doirasidagi ularning boshqa valyuta xarajatlarini, shuningdek, qurilish-pudrat tashkilotlarini jihozlash uchun texnika xarid qilishni moliyalashtirish uchun 15 yil muddatga, shu jumladan 4 yillik imtiyozli davr bilan, jumladan qayta moliyalashtiruvchi bankning marjasi 0,25 foiz bo‘lgan yillik 2,25 foiz stavkasida taqdim etiladigan, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan qayta moliyalashtiriladigan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 52,8 mln. AQSh dollari miqdoridagi krediti hisobidan moliyalashtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Transport to‘g‘risida»gi qonuni, 09.08.2021-yildagi O‘RQ-706-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Temir yo‘llar to‘g‘risida»gi qonuni, O‘RQ-766-I son,15.04.2020-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PF-2313-sonli «2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modyernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-sonli farmoni

QISQA XABARLAR

UO‘T. 2964

RIVOJLANGAN BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SHAHAR JAMOAT TRANSPORTINI BOSHQARISH TIZIMI

Norkulov Suxrob Turakulovich
“Toshkent Metropoliteni” DUK boshlig‘ining ilmiy-innovatsion rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - Toshkent davlat transport univyersiteti prorektori
E-mail: sni.kor@bk.ru

Annotatsiya. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida shahar jamoat transportini (ShJT) boshqarish tizimini takomillashtirishning maqsad, vazifalari va shakllari mazmuniga sifat jihatidan yangi va keng ko‘lamli talablar qo‘yilmoqda.

Аннотация. В условиях развитой рыночной экономики к содержанию целей, задач и форм совершенствования системы управления городским общественным транспортом предъявляются качественно новые и масштабные требования.

Abstract. In the conditions of a developed market economy, qualitatively new and large-scale demands are placed on the content of goals, tasks and forms of improving the urban public transport management system.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida shahar jamoat transportini (ShJT) boshqarish tizimini takomillashtirishning maqsad, vazifalari va shakllari mazmuniga sifat jihatidan yangi va keng ko‘lamli talablar qo‘yilmoqda.

Shahar yo‘lovchi tashish transporti Toshkent shahrida ijtimoiy sohaning yyetakchi tarmoqlaridan biridir. Yo‘lovchi tashish transportining asosiy vazifasi aholining transportga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq va o‘z vaqtida qondirish, transport tizimining samaradorligi va sifatini oshirishdan iborat.

ShJT ommaviyligi bozor munosabatlari sharoitida jamiyatning mulkiy bo‘linishini yumshatib, ijtimoiy-iqtisodiy tartibga soluvchi samarali vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda ShJT tizimi faoliyati samaradorligini ta’minlash murakkabligi shundan iboratki, bir tomondan uning yyetkazib byeruvchilar bilan o‘zaro aloqasi va xo‘jalik yuritish mexanizmi bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi tufayli yuqori ekspluatatsiya xarajatlari bilan ajralib turadi, ikkinchi tomondan, investitsiya va tashish xarajatlariga nisbatan ta’riflarning past darajasi aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari bilan bevosita bog‘liq.

1863-yilda Londonda 3,6 km uzunlikdagi birinchi metropoliten liniyasi ochilganidan buyon, dunyodagi mavjud metro tarmog‘i bugungi kunda 6000 km dan oshadi. Jahonning yirik shaharlarda keng rivoj topgan ushbu transport turida kuniga 150 milliondan ortiq yo‘lovchi tashiladi. Metroning shahar jamoat transporti turi sifatidagi asosiy afzalliklari poezdlarning yuqori (100 km/soatgacha) tezligi va 40 sekundgacha bo‘lgan oraliq muntazamligi bir yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida 50 mingdan ortiq yo‘lovchini tashish imkonini byeradi. Shahar jamoat transporti tizimida metropolitenda tashishni tashkil etish bilan aholining qatnovlarga ketadigan o‘rtacha vaqti 15 foizigacha tejaladi, bu ShJT faoliyati samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Yiliga tashiladigan yo‘lovchilar soni bo‘yicha Tokio (3,2 milliard), Moskva(2,4 milliard) va Pekin (2,2 milliard yo‘lovchi) metropolitenlari yyetakchilik qilib kelmoqda.

Metro enyergiya iste’moli va egallaydigan maydoni bo‘yicha shahar yo‘lovchi transportining eng samarali turi hisoblanadi. Fransuz mutaxassislarining hisob-kitoblari ko‘ra, metrodan foydalangan holda bir yo‘nalishda soatiga 50 ming yo‘lovchini tashish uchun kengligi 9 m, avtobuslarda - 35 m, shaxsiy avtomobillar - 175 m bo‘lgan yo‘lak talab etildi. Bundan tashqari, 1 kg neft hisobiga bir yo‘lovchini metroda 48 km, avtobusda 38 km, avtomobilda 19 km masofaga tashish mumkin. Tormozlash vaqtida elektr enyergiyasini qaytarish (rekupyeratsiya) mexanizmini amalga oshirish metroda tashish xarajatlarini sezilarli tejalishini ta’minlaydi.

Metropolitepn faoliyatini smarali tashkil etish transport, shaharsozlik va ijtimoiy siyosatning yuqori darajadagi o‘zaro uyg‘unligi bilan ta’minlanadi.

ShJT turlari orasida metro ekspluatatsiya ishlarining ishonchliligi va texnik xizmat ko‘rsatishni soddalashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Masalan, mashinistsiz poezdlarni avtomatik boshqarish tizimining joriy etilishi mehnat unumdorligining oshishiga, harakat xavfsizligi va muntazamligi darajasining oshishiga olib keladi.

Shahar transport tizimlarining asosiy bo‘g‘ini sifatida metrolar noyob, murakkab va qimmat muhandislik inshootlari bo‘lib qolmoqda, ular qurilish va ta’mirlash uchun katta miqdordagi mablag‘ni talab qiladi. Shu sababli, metropoliten faoliyatini budjetdan moliyalashtirishning klassik usullari bilan bir qatorda, barcha manfaatdor tomonlar hamkorligigga asoslangan yangi moliyaviy qo‘llab-quvatlashning mexanizmlarini, jumladan, davlat tomonidan soliq imtiyozlarini byerish, liniyalar o‘tish yo‘llari va bekatlar joylashgan hududlardagi yyer uchastkalaridan imtiyozli foydalanish huquqini byerish, metropoliten qurilishi ishtirokchilarini asosiy aksiyadorlar tarkibiga kiritish, davlat-xususiy shyerikligi kabi turli usullari joriy etishni talab etadi.

Metropolitenni boshqa transport turlarini yagona kompleksga birlashtirish barcha ShJT opyeratorlari uchun ta’riflar tizimini takomillashtirish va soddalashtirishga imkon byeradi. Shu bilan birga, turli transport turlarida yo‘l haqini to‘lash uchun foydalaniladigan kontaktsiz smart-kartalar, yo‘lovchilarni qatnov oldidan va qatnov davomida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etilishi ushbu transport turidan foydalanishning jozibadorligi va qulayligi oshishiga xizmat qiladi.

Metropoliten ishini samarali tashkil etish aholi harakatchanligini ta’minlash, transport turlari o‘rtasidagi harakatni jamoat transporti foydasiga taqsimlashni optimallashtirish hamda shaxsiy avtomashinalar ulushini qisqartirishda hal etuvchi omil bo‘lib yuzaga chiqadi.

Metro ko‘p qirrali transport turi sifatida har qanday ob-havoda yo‘lovchilarni tashishi mumkin.

Metroda tashishning bugungi jahon amaliyotida harakatlanuvchi tarkibning tezyurar turlaridan ko‘proq foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, shahar ichida o‘rta va qisqa masofalarga tashish uchun tezyurar poezdlardan foydalanish eng samarali yechimlardan biri hisoblanadi.

Yirik shaharlarda yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish sohasida avtotransport kompaniyalari va boshqa transport turlari o‘rtasida kuchli raqobat mavjud.

Metro jamiyatga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy daromad keltirmasada, uning tarmoqdan tashqari samarasi yuqoridir. Bu yo‘llardagi tirbandlikning kamayishi, yangi yo‘llarni qurish xarajatlarini tejash bilan birga, yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilash, aholi salomatligini oshirish va transportning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish bilan namoyon bo‘ladi.

Boshqa transport turlari bilan solishtirganda, metro katta hajmdagi yo‘lovchilarni tashish qobiliyati hisobiga transport ishining bir birligiga nisbatan eng enyergiya sarfi bilan ajralib turadi, xavfsizroq va ekologik toza va yo‘lovchilarni avtomobillarga qaraganda yuqori tezlikda tashiydi (1-jadval).

1-jadval.

Shahar jamoat transporti turlari xizmatlari sifatining qiyosiy tahlili

Transport turi	Qatnov vaqti	Shinamlik	Xavfsizlik	O‘rtacha ball
Metro	**5**	**4**	**5**	**4,7**
Avtobus	**2**	**2**	**3**	**2,7**
Mikroavtobus	**3**	**3**	**3**	**3,0**
Taksi	**4**	**4**	**3**	**3,7**

TOShKENT METROPOLITENI

Toshkent metropolitenining 9 bekatdan iborat birnchi navbati 1977-yil noyabr oyida foydalanishga topshirilgan. Respublikamiz mustaqillik yillarida shahar markazini katta turar-joy massivi bilan bog‘lovchi 8 ta bekatdan iborat Yunusobod liniyasi qurilib foydalanishga topshirildi. Yunusobod yo‘nalishida uzunligi 2,9 km bo‘lgan yyer osti metropoliten liniyasi hamda «Yunusobod» va «Turkiston» bekatlari barpo etildi, yyer usti halqa metropoliten liniyasining I-bosqich — 11,7 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat bo‘lgan qismi hamda 6,2 km uzunlikdagi Syergeli yyer usti metropoliten liniyasining 5 ta bekati foydalanishga topshirildi.

Metro qurilishi zamonaviy qurilish usullari va enyergiya tejovchi yangi texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Hozirda Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi 59,1 kilometrni (Chilonzor — 22,4 km, O‘zbekiston — 14,9 km, Yunusobod — 10,1 km, Xalqa — 11,7 km) tashkil etib, uning tarkibida 43 ta bekat, 5 ta ishlab chiqarish-texnik xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, 2 ta elektr deposi hamda harakatlanuvchi tarkibni ta’mirlash va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish deposi faoliyat ko‘rsatmoqda (2-jadval).

Toshkent metropolitenini ishga tushirish bosqichlari 2-jadval

№	Metropoliten uchastkasi	Bekatlar soni	Ishga tushirilgan sana
	Chilonzor yo‘li – 22,4 km		
1.	Olmazor - Amir Temur xiyoboni	9	06.11.1977
2.	H.Olimjon – Buyuk ipak yuli	3	18.08.1980
	O‘zbekiston yo‘li – 14,9 km		
3.	Alishyer Navoiy – Toshkent	5	07.12.1984
4.	Mashinasozlar – Do‘stlik	2	06.11.1987
5.	G‘afur Gulyam – Chorsu	2	06.11.1989
6.	Tinchlik – Byeruniy	2	30.04.1991
	Yunusobod yo‘li –10,1 km		
7.	Ming O‘rik – Shahriston	6	24.10.2001
8.	Yunusobod - Turkiston	2	29.08.2020
	Yyer usti xalqa yo‘li – 11,7 km		
9.	Do‘stlik-2 - Quyliq	7	30.08.2020
	Sirg‘ali yo‘li – 6,2 km		
10.	Olmazor - Sirg‘ali	5	01.12.2020

2016-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida metropoliten liniyasining umumiy uzunligi 38 km dan 59 km ga, bekatlar soni 29 tadan 43 taga yyetkazildi, Toshkent metropolitenida yo‘lovchilar tashish quvvati 2016-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, kunlik yo‘lovchi tashish 160 ming yo‘lovchidan 400-420 ming yo‘lovchiga yyetkazildi.

Toshkent shahrida yyer usti halqa metropoliten liniyasining II-bosqich — 13 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat «Qo‘yliq — Qipchoq» uchastkasida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Transport to‘g‘risida»gi qonuni, 09.08.2021-yildagi O‘RQ-706-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Temir yo‘llar to‘g‘risida»gi qonuni, O‘RQ-766-I son,15.04.2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PF-2313-sonli «2015-2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modyernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-sonli farmoni

UDK 621.31

10-6-0,4 kV ELEKTR UZATISH LINIYALARI ISROFLARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Xolbayev Doniyor Jo‘raboyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
«Enyergetika» kafedrasi
PhD., dotsent xolbayev_doniyor@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada 0,4-6-10 kV li elektr uzatish tarmoqlarida isroflarni kamaytirish yo‘llari, iste’molchilarni sifatli elektr enyergiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, o‘tkazgichlardagi qizishni oldini olish, qo‘llanilayotgan usulning afzalliklari hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о способах снижения потерь в линии электропередачи 0,4-6-10 кВ, удовлетворения спроса потребителей на качественную электроэнергию, предотвращения перегрева в линии электропередачи и повышения преимуществ и эффективности используемого метода.

Abstract: The article provides information on ways to reduce wastage in the 0.4-6-10 kV transmission line, to meet consumyers' demand for quality electricity, to prevent ovyerheating in the transmission line, and to increase the benefits and efficiency of the method used.

Tayanch so‘zlar: pog‘ona kuchlanish, yuklamalarni o‘zgarishi, ish rejimlar, grafik usuli, grafik analitik usul, analitik usul, o‘rtacha kvadratik quvvat, maksimal isrof, maksimal yuklama, o‘rtacha qiymat, bir vaqtlilik koeffitsiyenti, o‘tkazuvchanlik, hisobiy almashtirish sxemasi, tokning iqtisodiy zichligi, induktiv qarshilik, quvvat balansi, kuchlanishni obsalyut qiymati.

Ключевые слова: ступенчатное напряжение, изменяющаяся нагрузка, режим работы, графической метод, графо-аналитической метод, средноквадратическая мощность, максимальная нагрузка среднего значения, коэффициент одновременности проводимости, расчетная схема замещения, экономическая плотность тока, индуктивное сопративление, баланс мощностей, обсолютное значение напряжения.

Keywords: stepwise voltage, variable load, mode of opyeration, graphical method, graph-analytical method, mean square powyer, maximum load mean value, coefficient of one-time conductivity, calculated substitution scheme, economic current density, inductive copративeness, powyer balance, absolute voltage value.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tuzilmalarining asosiy poydevori elektr enyergiya ta’minoti hisoblanadi. Suv xo‘jaliklari, fyermyer xo‘jaliklar, sanoat korxonalari va ijtimoiy sohalarni elektr enyergiyasi bilan ta’minlash yetakchi o‘rinni egallaydi.

Hozirgi kunda elektr enyergetika tizimda 43 tadan ortiq gidravlik va issiqlik elektr stansiyalari mavjud bo‘lib, 2024-yil sarxisobiga ko‘ra mamlakatimizda elektr enyergiyaga bo‘lgan talab 74 milliard kilovatt soatni tashkil etadi. Ayni vaqta yurtimizda ishlab turgan elektr stansiyalari yordamida elektr enyergiyani iste’molchilarga yiliga 64 mlrd. kVt.soat elektr enyergiyasi bilan ta’minlash imkoniyatiga ega. Bu miqdordagi quvvatni xosil qilish uchun yiliga 16,5 milliard kub metr tabiiy gaz, 86 ming tonna mazut hamda 2,3 million tonna ko‘mir sarflanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, 2030-yilga borib, mamlaktimizning elektr enyergiyaga bo‘lgan talabi 117 milliard kilovatt soatga etadi.


Ishlab chiqarilgan, uzatilgan va taqsimlangan elektr enyergiya kuch transformatorlari orqali turli pog‘ona kuchlanishlarga o‘zgartirilib, elektr uzatish tarmoqlari orqali sifatli elektr enyergiyasi elektr ist’emolchilariga yetkazib byeriladi. Turli pog‘ona kuchlanishlar bo‘yicha elektr uzatish liniyalarining umumiy uzunligi 290 ming km. dan ortiq masofani tashkil etadi.

Elektr uzatish liniyalarining strukturasidan ko‘rinib turibdiki, 0,4 - 6 -10 kV elektr uzatish liniyalarida elektr enyergiyani taqsimlanishiga ko‘ra 84,6 % ni tashkil etadi, ularda elektr

enyergiyani isrofi boshqa pog‘ona kuchlanish elektr liniyalariga nisbatan ancha yuqori darajaligicha qolmoqda [3].

0,4 - 6 -10 kV li elektr uzatish tarmoqlari eng uzun va ko‘p tarmoqlangan hisoblanadi. Bu tarmoqlari orqali asosiy elektr iste’molchilari qishloq xo‘jaligi aholi yashash punktlari, ma’muriy maishiy binolar, ba’zi sanoat korxonalari ta’minlanadi. Bu tarmoqlardan ta’minlanayotgan elektr iste’molchilarini yuklama grafiklari turlicha bo‘lganligi natijasida tarmoqlarda yuklamalar ortishi va kamayishi yoki yuklamalarni teng taqsimlanmasligi hamda turli hil ish rejimiga ega bo‘lgan iste’molchilarda yuklamalarning tebranish isroflarini ortishi asosiy sabablardan biri hisoblanadi bundan tashqari tarmoqlarni texnik xizmat ko‘rsatishda ba’zi kamchiliklar uchraydi. Bu kamchiliklarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

- Belgilangan muddatda profilaktik sinovlar o‘tkazilmasligi.
- Havo liniyalari trassasi bo‘ylab tayanchlarning to‘g‘ri o‘rnatilmaganligi.
- Tayanchda faza simlari noto‘g‘ri montaj qilinganligi.
- Havo liniyasini qurish uchun lozim bo‘lgan tayanchlar soni va turlari to‘g‘ri tanlanmaganligi.
- Tayanchdagi bandajlarni o‘rnidan siljib ketish holatlarida tayanchlarni yerga yaqinlashib qolishi.



1-rasm. Elektr enyergiyani liniyalarda taqsimlanish diagrammasi

Bizga ma’lumki 2010-yildan boshlab taqsimlovchi tarmoqlar bosqichma-bosqich o‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgichlar qo‘llanilishi isroflarni kamaytirish bilan bir qatorda bir qancha afzalliklarga ega:

Birinchidan: fazalar orasidagi hamda yyer bilan liniya orasidagi sig‘imiy nobudgarchilikni kamaytiradi.

Ikkinchidan: kommyersiya isroflarini kamaytirishga olib keladi, ya’ni tarmoqni har qanday nuqtasidagi o‘g‘rilik orqali ulanish imkoniyati bo‘lmaydi.

Uchinchidan: tashqi ta’sirlar natijasida sodir bo‘ladigan isroflar tejaladi va shu bilan birga taqsimlovchi tarmoqlar bo‘ylab aloqa tizimi yaxshilanadi.

Bulardan tashqari ta’minlovchi tarmoqlarni loyiha-texnik hujjatlar asosida qurishni ko‘zda tutish mavjud tarmoqlarni uzunligini qisqartirish, liniyalarni zaminlash tizimini yaxshilash, fazalar bo‘yicha yuklamalarni teng taqsimlashga e’tibor qaratish tarmoqlarni texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi va samaradorlikni oshiradi.

Elektr uzatish liniyalarining har qanday elementida elektr enyergiya isrofi, uni uzatish va iste’mol jarayonida o‘zgarishiga bog‘liq. Yuklama har yil davomida o‘zgarib tursa, u holda elektr enyergiya isrofini turli usullar yordamida hisoblanadi. Yuklama maksimal bo‘lgan holatdagi aktiv quvvat isrofi quydagicha:

$$\Delta P_{Ë} = \frac{S_{ì\ ax}^2}{U_{íîì}^2} \cdot r_l = \frac{\left(\frac{P_{ì\ ax}}{cos\varphi}\right)^2}{U_{íîì}^2} \cdot \frac{r_0 \cdot l}{2} \cdot 10^3$$

Uch fazali elektr uzatish tarmog‘i liniyalarining aktiv quvvat isrofi quyidagicha:

$$\Delta P_{Ë} = 3 \cdot I_m^2 \cdot R_{Ë} \cdot 10^{-3} \quad kVt$$

shunga mos ravishda reaktiv quvvat:

$$\Delta Q_{Ë} = 3 \cdot I_m^2 \cdot X_{Ë} \cdot 10^{-3} \quad kVAr$$

I_m

Bu yerda -shu uchastka liniyasidagi hisobiy tok (A)

Ba’zi hollarda liniyadagi quvvat isrofi hisobiy quvvatga nisbatan foizda aniqlanadi

$$\Delta P_{Ë}\,\% = \frac{\Delta P_{Ë}}{P_m} \cdot 100\%$$

Agar o‘zgaruvchan tok liniyasida reaktiv tashkil etuvchida kuchlanish isrofi kichik bo‘lsa uni hisobga olmasa ham bo‘ladi, u holda quvvat isrofi va kuchlanish isrofi orasidagi aloqani foizlarda aniqlash mumkin.

Haqiqatdan bu holatda uch fazali tarmoq uchun

$$\Delta U\% = \frac{\sqrt{3} \cdot I_m \cdot R_{Ë} \cos\varphi}{U_n} \cdot 100$$

$$\Delta P\% = \frac{3 \cdot I_m^2 \cdot R_{Ë}}{P_m} \cdot 100 = \frac{\sqrt{3} \cdot I_m \cdot R_n}{U_n \cdot \cos\varphi} \cdot 100$$

U holda $$\Delta P\% = \frac{\Delta U\%}{\cos\varphi}$$

Enyergiya isrofi $$\Delta W_{Ë} = 3 \cdot I_m^2 \cdot R_{Ë} \cdot \tau_0 \cdot 10^{-3} \quad kVt \cdot s$$

$$\Delta W_{Ë} = 3 \cdot I_m^2 \cdot X_{Ë} \cdot \tau_0 \cdot 10^{-3} \quad kVAr \cdot s$$

Elektr uzatish liniyalarni uzunligi qancha uzun bo‘lsa, elektr liniyalarda elektr enyergiya isrofgarchiligi shuncha yuqori miqdorda bo‘ladi. Istemolchilarning aktiv va reaktiv yuklamalarining o‘zgarishi enyergiya tizimida aktiv va reaktiv quvvatlar oqimlarini hamda, undagi isroflarni o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. “O‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgich (O‘TTIO‘)lar, ya’ni (SIP)”ni montaji “O‘zqishloq enyergo loyiha" AJ tomonidan loyihalashtiriladi va “O‘zbekenyergo” AJ tomonidan tasdiqlanadi hamda, "O‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgichni” 1kV gacha kuchlanishli elektr uzatish havo liniyalari manzilli o‘rnatish qoidasiga ko‘ra, byerilgan liniyalari uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, ular loyihaga mos holda bajarilishi lozim.

O‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgich (SIP)” ya’ni (O‘TTIO‘) umumiy liniyani andozali uchastkasi uchun montaj ishlarini bajarish bosqichlari quyidagicha:

1. Ustun va tayanchlarni o‘rnatish;
2. Mahkamlash qurilmalarining montaji;
3. (SIP)” ya’ni O‘TTIO‘larni joylashtirish;

4. Elektr uzatish liniyalarni - tortib turuvchi va uning ankyerli mustahkamlagichlar;
5. Oraliq qisqichlarga roliklarni almashtirish;
6. Magistral liniyadan ajraluvchi liniyani tuzilishi;
7. O‘ta kuchlanishdan elektr liniyalarni himoya qilish. Zaminlash tizimi;
8. Qisqa tutashuvlardan elektr liniyani himoya qilish;
9. Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tartibi, amaldagi qoidaga ko‘ra joylashtirish;
10. Transformatorlarning kirish (chiqish) cho‘lg‘amlarini ishonchli ulash;
11. 0,4 kV liniyalarda izolyasiyalangan ulagichlarni qo‘llanilishi.
12. Har bir elektr iste’molchilarnga elektr enyergiyani zamonaviy hisoblagichlarni o‘rnatish.

O‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgich sistemasi, havo liniyasi uchun ustunlar loyiha asosida o‘rnatiladi va ular quyidagi ustunlar asosida bajariladi:
- temir beton ustun - SV95-2,0 va SV110-3,5 rusumli;
- yog‘och ustun - S1 va S2 rusumli;
- yoki metall ustun.

Taqsimlash tarmoqlari va ulardan foydalanishda iqlim sharoitlarini hisobga olish, ustunlarni o‘rnatish va loyihalashda ularga e’tibor qaratish lozimni hisobga olish. Ist’emolchilarga sifatli elektrenyergiya yetkazib byerishdagi muammolarni bartaraf etishda quyidagilarini taklif qilamiz:

1. O‘ta yuklangan elektr liniyalarini bir pog‘ona yuqori kesim yuzali o‘tkazgichlarga almashtirish;
2. 0,4-6-10 kV elektr uzatish liniyalarini bosqichma-bosqich o‘zi tortib turuvchi izolyasiyalangan o‘tkazgichlar (SIP)ga almashtirish lozim;
3. Elektr uzatish liniyalari 0,4 - 6 -10 kV kuchlanish pog‘onalari buyicha, elektr uzatish liniyalar uzunligini cheklash yoki aniq mikdorini belgilash va unga amal qilish:

a) 0,4 kV – elektr tarmoq uzunligi – 800 metr;
b) 6 kV - elektr tarmoq uzunligi - 7 - 8 km;
v) 10 kV - elektr tarmoq uzunligi - 12 - 14 km.

ADABIYOTLAR

1. G‘oyibov T.SH. “Elektr enyergiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash” maruzalar matni Toshkent. TDTU 1999-y.
2. Иделчик В.И. “Електрические системы и сети” М.:Енергоатомиздат. 1989г.
3. Neklepaev V.N. Elektricheskaya chast stansiy i podstansiy. – M.: Enyergoatomizdat, 1986.
4. www. uzbekenyergo. dak. uz
5. www.ziyonet.uz

УДК 631.362

АНАЛИЗ ОБОРУДОВАНИЯ ДЛЯ УБОРКИ ЗЕРНОБОБОВЫХ КУЛЬТУР

Исокова Зубайда Хабибуллаевна
PhD, доцент, НамИСИ,
zulichka120783@gmail.com

Аннотация. В статье приведен анализ оборудования для уборки зернобобовых культур и уборки маша, а также предварительные исследования по разработке машауборочной машины.

Abstract. The article provides an analysis of equipment for harvesting leguminous crops and mung bean harvesting, as well as preliminary research on the development of a mung bean harvesting machine.

Ключевые слова: растения маша, уборки маша, направитель стеблей, жатка, урожай, зерно.

Keywords: mung bean plants, mung bean harvesting, stalk guide, reapyer, harvest, grain.

Введение

Исследования показывают, что 25% затрат на выращивание и производство маша составляют 75% затрат на сбор, очистку и сортировку.

Несмотря на то, что прямостоящие сорта маша адаптированы, они не могут быть убраны непосредственно однофазными комбайнами, где увеличение всхожести приводит к дроблению зерен в стручках, увеличению потери и снижению качества зерна.

До настоящего времени урожай маша собирали методом двухфазной уборки. В этом случае, когда созреет 65-75 процентов всего урожая маша (в это время влажность зерна составляет 35 процентов), его убирают с помощью ЖВП-2,9, ЖРБ-4,2, ЖСБ-4,2 и комбайна КС-2.1.

После 3-4 суток сушки в валках зерно обмолачивали комбайнами оснащенными собирателем (подборщиком) ППТ-3А. До сих пор в нашей республике его собирают двухфазным способом. Специальных машин для сбора маша нет, и во избежание потери зерна после созревания маша, ее собирают вручную для формирования валок [1].

Материалы и методы

Научно-исследовательские работы по уборке маша за рубежом практически не проводились. Но машины были разработаны и использовались для сбора бобовых, таких как фасоль и горох. Но эти машины нельзя использовать непосредственно для уборки маша.

Маш, как и другие бобовые культуры, отличается тем, что все его посевы созревают не одновременно. Особенно это заметно в северных регионах. Из-за его расположения в северном регионе было замечено, что в некоторые годы, если мы ждем, пока созреют соевые бобы, начинаются дожди, и урожай погибает. С учетом этого положения рекомендуется прием уборки всего биологического урожая сои в более ранние сроки с последующим вывозом на стационарные пункты и сушкой.

Многие ученые проводили исследования по сбору зернобобовых культур за рубежом. Среди них можно назвать И. В. Бумбаря, А. В. Парубенко, Н. М. Ожигову, М. И. Вязьмина, И. А. Лонцеву, А. А. Кувшинова, М. И. Татаринова, А. Аббаси Сурки, С. В. Щитова, М. В. Канделя, З. В. Назаренко и др. [2,3].



Рис. 1. Машина для сбора маша компании Meta Makine (Турция)

Уборочные машины, созданные в Турции и Испании основанны не на срезе стебля, а на выдёргивании его сборе. Это приводит к тому, что созревшие стручки опадают со стебля.



Рис. 2. Экспериментальный стеблеуборочный агрегат (Uz.harvestyer) с четырехрядным пассивным рабочим органом

Белорусской компанией «Гомельский завод литья и нормалей» разработаны машины ЮЗС-6, ЖЗС-7, ЖЗС-7-1 для уборки сои (рис. 3).




Рис.3. Жатка для уборки сои JZS Беларусской компании «Гомельский завод лития и нормалей»

Жатки JZS предназначены для скашивания с высоты 30 мм. При этом режущее устройство установлено на шарнирном подвесе и выполнено гибким. Ширина покрытия этих станций составляет 6-7 м, то есть станция JZS-6 составляет 6 м, станции JZS-7 и JZS-7-1 имеют ширину покрытия 7 м [4-7].

На практике были разработаны и приспособления, позволяющие приспособить комбайн к уборке зернобобовых культур.

Устройство BISO FLEX украинского производства адаптирует зерноуборочный комбайн для уборки сои (рис. 4).


Зерноуборочный комбайн оснащен устройством BISO FLEX и приспособлен для уборки сои. Данное устройство может быть установлено на 6-метровую ширину захвата зерноуборочных комбайнов компаний ДОН, Massey Fyerguson, Claas, Fortschritt, Case, Lavyerda, New Holland и других фирм. Устройство имеет гибкое косящее устройство и шипы, воспроизводящие поверхность земли [8-10].




Рис.4. Устройство BISO FLEX украинского производства

В результате анализа материалов и предварительных научных исследований был изготовлен первый опытный экземпляр агрегата, реализующего технологию уборки и валки растений маша.

Машина состоит из следующих рабочих органов: рамы, опорных колес, большого и малого пинцета, рабочего органа в виде диска или скребка, отделяющего стебли сусла от почвы, и подвешивающего устройства.



а)



а) вид сбоку, б) вид сверху.
1-подвесное устройство; 2-рама; 3-параллелограммный механизм подъемника; 4-стеблеподъемник; 5-гребень; 6-сферический диск; 7-стержень пружины давления (сердечник); 8-ряд; 9-опорное колесо; 10- ствол изгиба.

Рис.5. Схема агрегата уборки маша.

Технологический процесс машины выглядит следующим образом: когда машина входит в засеянную площадь и начинает двигаться между рядами, стеблеподъёмники поднимают лежащие по краям стебли маша, стеблегибы перемещают поднятые стебли в ряды, где нижняя часть стебля не имеющая бобов связанных с землей, сферические диски, расположенные на его задней стороне, отгибаются по его длине и подрезают корни стебля маша, углубляясь в почву на 5-7 см. Этот технологический процесс осуществляется двойными рядами, а стебли маша в двух рядах укладываются в один ряд [11,14].

Сейчас проводятся исследования по определению параметров и режимов работы рабочих органов этой машины, участвующих в уборке маша.

Качественное выполнение технологии уборки агрегатом стеблей маша зависит от взаимного расположения рабочих органов и их параметров.

К параметрам, относящимся к конструктивной схеме агрегата уборки и валки маша относятся: вертикальные и горизонтальные расстояния между рабочими органами и параметры устройства подвески.

Параметры стеблегибочного устройства: форма устройства, ширина охвата, угол установки прямой части относительно направления движения, радиус закругления, высота установки относительно основания.

Заключение

При разработке данной технологии учитывалось следующее:

- совпадение работ по сбору маша и подготовке ее к посеву;

- необходимость подготовки полей к повторному посеву в короткие сроки;
- необходимость подготовки маша к посадке в сжатые сроки;
- при проведении некоторых плановых операций по посеву маша их эффективность и качество снижаются из-за нестабильных метеоусловий в осенний период;
- возможность проведения всех операций одновременно с помощью механизации, сокращающей ручной труд.

ЛИТЕРАТУРА

1. КД Астанакулов, БА Хатамов. Совершенствование технологии уборки кукурузы на зерно в поливном земледелии // Сельскохозяйственные машины и технологии. – 2013, – №. 2. – С. 35-36.
2. Хатамов Б. А. Обоснование параметров початкоотрывочных вальцев кукурузоуборочной машины //Ирригация и мелиорация. – 2018. – Т. 4. – С. 66-69.
3. B A Khatamov and G G Fozilov 2022 IOP Conf. Syer.: Earth Environ. Sci. **1076** 012073
4. Akhmetov A. A. et al. To the issue about the tractional passability of high-clearance completely-driven four-wheeled univyersal-row cotton crop tractor //IOP Confyerence Syeries: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 1112. – №. 1. – С. 012017.
5. Akhmetov A. A. et al. Fitability of the high-clearance tractor with the 4K4 wheel arrangement at the row spacing //IOP Confyerence Syeries: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 1112. – №. 1. – С. 012038.
6. Khatamov B. A., Temirov S. U. Detyermination of the length of the separating parts of the corn harvestyer cob picking rollyers //IOP Confyerence Syeries: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1231. – №. 1. – С. 012010.
7. Kodirov S. T., Khatamov B. A., Payziev G. K. Justification of parametyers and opyerating modes of an elevator with combined rods //IOP Confyerence Syeries: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1284. – №. 1. – С. 012028.
8. Хатамов Б. А., Исокова З. Х. Влияние параметров листостебельных сепараторов на качество работы кукурузоуборочной машины //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 1196-1199.
9. Dullievich A. K., Arabbaevich K. B. Work quality indicators corn harvesting machine in harvesting of corn with a diffyerent stage of vegetation //European research. – 2017. – №. 5 (28). – С. 15-17.
10. S Temirov and B Khatamov 2024 IOP Conf. Syer.: Earth Environ. Sci. 1390 012003.
11. Курбанов Н. М., Хатамов Б. А., Исоқова З. Х. Озуқабоп донларни поғонали равишда майдалаб-эзгичнинг параметрларини асослаш //Механика и технология. – 2022. – Т. 4. – №. 9. – С. 123-129.
12. Xatamov B. A. Ways of harvesting of corn: technological processes and recommendations //Scientific-technical journal. – 2018. – Т. 22. – №. 1. – С. 171-175.
13. Isoqova Z. X. Mosh yig‘ishtirish mashinasini ishlab chiqish bo‘yicha dastlabki izlanishlar. – 2023.
14. Khatamov B. A. Detyermining the dimensions of the stalks and the leaf stalks falling into the augyer of the corn harvesting machine //Collection of articles of the republican scientific and practical confyerence on the topic of prospects for the development of private entrepreneurship in agriculture.-Andijan: AndQXI. – 2011. – С. 257-260.

QISQA XABARLAR

UO‘T.544.77.667.6

FLEKSOGRAFIK BOSMA ISHLARIDA BO‘YOQ SHIMMAYDIGAN QADOQLASH MATYERIALLARI TAHLILI

Jumayeva Mahliyo Baxtiyor qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti, doktorant
mahliyohainm94@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qadoqlash matyeriallariga qo‘yiladigan talablar keltirilgan, fleksografik bosmada qo‘llanadigan zamonaviy matyeriallarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan, fleksografik bosma sifatini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish uchun muammoli masalalar aniqlangan.

Аннотация. В статье приведены требования, предъявляемые к упаковочным материалам, проанализированы преимущества и недостатки существующих пленочных материалов, применяемых на флексографической печати, определены проблемные вопросы на флексографической печати на невпитывающих материалах для дальнейшего исследования по повышению качества флексографической печати.

Abstract. the article presents the requirements for packaging matyerials, analyzes the advantages and disadvantages of existing film matyerials used in flexographic printing, identifies problematic issues in flexographic printing on non-absorbent matyerials for furthyer research to improve the quality of flexographic printing.

Kalit so‘zlar: fleksografik bosma, plenka, qadoqlash, polietilen, polipropilen, polivinilxlorid, polistirol, poliamid, polietilentyereftalat.

Ключевые слова: флексографическая печать, пленка, упаковка, полиэтилен,поливинилхлорид, полистирол, полиамид, полиэтилентерефталат.

Key words: flexographic printing, film, packaging, polyethylene, polyvinyl chloride, polystyrene, polyamide, polyethylene tyerephthalate.

Kirish

Qadoqlash texnologiyasining rivojlanishi qadoqlash matyeriallariga turlicha, ba’zan qarama-qarshi talablarni qo‘yishi, bu qadoqlash matyeriallarining turlarini ortishiga olib keladi.

Quyida qadoqlash matyeriallariga qo‘yiladigan talablar ro‘yxati keltirilgan [1]

- suv va namlikka nisbatan turg‘unlik;
- ishqorga nisbatan turg‘unlik;
- sovun va yuvish vositalarining ta’siriga turg‘unlik;
- pishloq va oziq-ovqat yog‘larining ta’siriga turg‘unlik;
- parafin va mumga nisbatan turg‘unlik;
- yorug‘likka nisbatan turg‘unlik;
- tirnashga nisbatan turg‘unlik;
- egilishga va yedirilishga chidamlilik
- sut va meva kislotalariga, qaynoq suv ta’sirlariga nisbatan turg‘unlik;
- qattiq muzlatishga chidamlilik;
- issiqlik bilan payvandlashda mustahkamlik.

Bu ro‘yxatga qadoqlanayotgan mahsulotning ko‘rinishiga qarab qo‘shimcha bo‘lishi mumkin.

Matyeriallar va muhokama

Yuqorida keltirilgan ro‘yxatni tahlil qilinsa, an’anaviy qadoqlash matyeriallari qog‘oz, karton, shisha, buklama karton, yupqa zanglamaydigan po‘lat varaq sanab o‘tilgan aksariyat parametrlarni qoniqtirmaydi, shishani istino qilish mumkin, ammo uning narxi, vazni, qo‘polligi samarali qadoqlash matyeriali sifatida keng qo‘llashga imkon byermaydi. Shu sababli ishlab

chiqaruvchilarning aksariyati polimyer matyeriallardan foydalanishni afzal ko‘rishmoqda. Agar polimyer plenkaning bir turi barcha talablarga javob byermasa, u holda ikki yoki undan ortiq plenkalardan tashkil topgan maxsus kompozitsion matyerial zarur bo‘ladi [2]. Shunga o‘xshash kompozitsion matyerialga namuna sifatida mayonez qadoqlanadigan 12 mkm qalinlikdagi polietilentyereftalatni va kofe qadoqlanadigan polietilentyereftalat, yupqa alyuminiy varaq polietilenni keltirish mumkin. Plenkaning keltirilgan turi O‘zbekistonda keng tarqalgan va qadoqlanayotgan mahsulotlarning barcha zarur talablariga mos keladi. Polimyer plenkalarning ommaviyligini ortishiga iste’molchi qadoqlarini rivojlanishi sabab bo‘ldi [3], aksariyat ishlab chiqaruvchilar birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlarini egiluvchan polimyer qadoqlarga qadoqlashni, yoki o‘zi yelimlanadigan shaffof etikyetkalardan foydalanishni boshlashdi.

Fleksografik bosma kesimida egiluvchan qadoqlash matyeriallariga keng o‘ramali mashinalarda bosma ishlari solvent bo‘yoqlardan foydalanildi, ammo kambar o‘rama bilan ishlaydigan mashinalarning rivojlanishi bilan buyurtmalarni ultrabinafsha-texnologiyasi qo‘llanadigan kambar o‘ramali mashinlarga joylashtirish boshlandi.

XX asr davomida polimyer plenkalarning vfleksografik bosmaga yaroqli bo‘lgan yetarlicha turlari ma’lum edi [4], ularning ko‘pchiligi hozirgi kunda ham qo‘llanilmoqda. Ammo keyingi 20 yil ichida polmyer plenkalarning turlari quyun kabi ortishi kuzatildi, shu bilan birga qadoqlash plenkalarning bir qismi amalda yo‘qolib ketdi (masalan sellofan paket). Yana shunga e’tibor byerish kyerak-ki bozorda neftni qayta ishlash asosida tayyorlangan plenkalar o‘rniga tabiiy xom-asho asosida tayyorlanganlari paydo bo‘ldi.

Hozirgi kunda polimyer plenkalarning uchta tipi mavjud: tabiiy, sun’iy va sintetik polimyerlar. Tabiiy polimyerga sellyulozadan tayyorlanadigan sellofanmisol bo‘la oladi. Sun’iy polimyerlarga – tabiiy mahsulotlarning modifikatsiyalari, masalan, gidroxlorid-kauchuk plenkalar. Qadoqlashda eng ko‘p tarqalgan polimyerga tyermplastlar – sintetik polimyerlar kiradi[5].

Egiluvchan qadoqlashda ko‘p qo‘llanadigan plenkalari ichida polietilen, polipropilen, polistirol, poliamid, polietilentyereftalat ajralib turadi.

Polietilen – etilenni polimyerlanish mahsulot bo‘lib, qutbsiz polimyer hisoblanadi, ishqor va kislotalarga nisbatan barqaror, kuchli oksidlovchilarga chidamsiz, inson uchun xavfsiz, issiqlik bilan payvandlanish xususiyatiga ega, suv, bug‘, namni o‘tkazmaydi, qalinligi 1-250 mkm [6]. O‘zining xossalariga ko‘ra boshqa polimyer plenkalar kombinatsiyasida har qanday mahsulotni qadoqlash mumkin. Sirt taranglik kuchi juda past 29-31 mN/m bo‘lgani sababli sirtiga ishlov byerishni talab qiladi.

Polipropilen – polipropilenning maxsus styereomahsuli bo‘lib past tempyeraturada va normal sharoitda katalizator ishtirokida olinadi. Zichligi va sirt tarangligi 29 mN/m polietilendan kam, issiqlikka chidamli, ho‘llanishni va bo‘yoq adgeziyasini oshirish uchun sirtiga ishlov byerish zarur bo‘ladi [7].

Polivinilxloridni pyeroksid tipidagi katalizatorlar bilan emulsion polimyerlash yo‘li bilan olinadi.u qattiq va egiluvchan bo‘lishi mumkin. Birinchisi dekoratsiya plenkalari va tyeri o‘rnini bosadigan matyerial sifatida, ikkinchisi oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda, o‘zi yelimlanadigan tasma tayyorlashda ishlatiladi, polietilen va polipropilendan farqli o‘laroq, uning sirt tarangligi 43 mN/m bo‘lib qo‘shimcha ishlovsiz bosma ishlarida ishlatiladi [8].

Polistirol – stirolning turli texnologiyalar bo‘yicha polimyerlash mahsuli bo‘lib himoyaviy xossalari past. Qattiq, bikr va mo‘rt mtyerial. Issiqqa chidamli, shu sababli to‘g‘ri chiziqli shaklga ega bo‘lmagan qadoqlarni tayyorlashda ishlatiladi. Sirt tarangligi 33-35 mN/m oralig‘ida, bosma ishlarida juda kam foydalaniladi. Poliamid – diamin yoki aminokarbonli kislotalarning yarimkondensatsiyalanishi mahsuli. uzilishda juda yuqori mustahkamlikka ega, yyeyilishga chidamlii styerillashga bardosh byeradi, past tempyeraturalarda elastikligini salaydi. Gigroskopik xususiyatga ega va qarishga moil, ishlov byerishsiz bosma ishlarida foydalanilishi mumkin.

Polietilentyereftalat – murakkab poliefir, etilenglikol va treftal kislotaning yarimkondensatsiyalanish mahsuli. puflab tayyorlanadigan qadoqlar tayyorlashda ommaviy ishlatiladi. Ishlatish jarayonida o‘lchamlari o‘zgarmaydi va issiqbardosh, sirt tarangligi 46 mN/m darajada, sirtiga ishlov byerishsiz bosma ishlarinibajarish mumkin. Ammo amalda bosilgan bo‘yoqni ushlatishda muammolar tug‘iladi.issiqlik bilan payvandlanish xossasi kompozitsion matyeriallarda polietilen bilan birga ishlatiladi, bunday tarkib uni oziq-ovqat ishlab chiqarishida qadoqlangan mahsulot bilan kontaktlashadigan almashtirib bo‘lmaydigan qadoq matyerialiga aylantiradi [9].

Bundan tashqari plenkalarda turli qo‘shimchalar bo‘lib, ular ishlatishdagi xossalarini orttirish bilan birga fleksografik bosma xususiyatlarini yomonlashtiradi. Bunday qo‘shimchalarga egiluvchanlik va elastiklikni orttiradigan plastifikator polimyerlarlar, qarishdan himoya qiladigan, zararli nurlanishlarni o‘tkazmaydigan ultrabinafsha ekranlar, yopishqoqlikni oldini oluvchi sirg‘anuvchi qo‘shimchali antibloklovchilar, statik elektrlanishni ko‘piklashishni va bo‘yalishni bartaraf qiluvchi antioksidant polmyerlar. Aksariyat qo‘shimchalar polimyer plenkaningsirtida ko‘chib yurib suyuq bo‘yoq bilan tishlashish va ta’sirlashishni pasaytiradi [10].

Xulosa

Bo‘yoq shimmaydigan matyeriallarga fleksografik bosma ishlarida ishlatiladigan bo‘yoqlarni ultrabinafsha nurlarida qotishida keng tarqalgan muammolar: sirt tarangligining kuchsizligi tufayli yuzaga keladigan adgeziyaning pastligi yoki polimyer plenka sirtidan bo‘yoq qatlamlarini qatlamlab ko‘chishi, yoki ba’zi matyeriallarning bo‘yoq bilan va bo‘yoqlarning o‘zaro mos tushmasligi , saqlash sharoitini talabga javob byermasligi kabilar

ADABIYOTLAR

1. Вебер Я. В чем корень зла, или еще раз о необходимости стандартизации во флексографии // Флексоплюс. 2005. № 6.
2. Черных В.В. Разработка основ методики расчета и проектирования короткого красочного аппарата с тангенциальным раскатом: дис. ... канд. техн. наук. М., 1992.
3. Сартор М. Пленки нового поколения // Флексография и специальные виды печати. 2006. № 6.
4. Что важно при выборе узкорулонных флексографских печатных машин [Электронный ресурс] // Химия - полный курс химии. Образовательный ресурс:[сайт].[2006].
5. Ефремов Н.Ф. Тара и ее производство: учебное пособие. М.: МГУП, 2001. 312с.
6. Климова Е.Д. Упаковочные материалы: учебное пособие. М.: МГУП, 2010. 154 с.
7. Баканов, В.А. Свойства полимерных пленок, активированных коронным разрядом, и особенности их применения в производстве упаковки: автореф. дис. ... канд. техн. наук. М., 2008.
8. Флексографская печать на бумаге и полимерных пленках. М.: МГАП, 1996. 172 с.
9. Петраш Д. Печать по пленкам PET - варианты решения проблем // Флексоплюс. 2002. № 6.
10. Макаров А., Потураев О. «Антикризисные» грунты для УФ-печати на пленках // Флексография и специальные виды печати. 2009. № 2-3.

UO‘T 62-21474

PO‘LAT YUZASIGA PLAZMA NITRIDINI TA’SIR ETTIRISH NATIJASIDA UNING ISHQALANISHGA BARDOSHLIGINI OSHIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH

Kengboyev Sirojiddin Abray o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi.
sirojmagistrstudent@gmail.com

Isaxanov Hamidullo Isaxanovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti t.f.n

Annotatsiya. Maqolada plazmali nitridlash (azotlash bilan po‘latning yuza qatlam o‘zgarishi) borasida olib borilgan. O‘tkazilgan metallografik sinovlar natijasida, yupqa, g‘ovak va getyerogen azotli qatlam mavjudligi yoki uning yo‘qligi, yadrosi uning to‘yinmagan holati va tyermal parametrlari o‘zgarganligi aniqlangan. Nitridlash parametrlarini o‘zgartirishda gazlar, vaqt va nitridlashning harorati o‘zgartirish bo‘yicha jarayon taklif qilindi. Ion azotlash jarayonining eng optimal natija olish uchun gaz oqimi, vaqt, harorat parametrlarini rostlash zarur.

Аннотация. В статье рассматривалось плазменное нитрование (изменение поверхностного слоя стали азотированием). Проведенные металлографические испытания выявили наличие или отсутствие тонкого, пористого и неоднородного азотистого слоя, ядра в его ненасыщенном состоянии и изменение тепловых параметров. При изменении параметров азотирования был предложен процесс изменения газов, времени и температуры азотирования. Для получения оптимального результата процесса ионного азотирования необходимо отрегулировать параметры расхода газа, времени, температуры.

Annotation. Plasma nitration (changing the surface layyer of steel by nitriding) was considyered in the article. The metallographic tests carried out revealed the presence or absence of a thin, porous and hetyerogeneous nitrogen layyer, a core in its unsaturated state and a change in thyermal parametyers. When changing the nitriding parametyers, the process of changing gases, time and tempyerature of nitriding was proposed. To obtain the optimal result of the ion nitriding process, it is necessary to adjust the parametyers of gas flow, time, and tempyerature.

Tayanch so‘zlar: issiqlik bilan ishlov byerish, yadro, mikron, kimyoviy tozalash, plazma nitridlash, vaqt, metal yuzasi, getyerogen, metallografik sinov, harorat.

Ключевые слова: термическая обработка, сердечник, микрон, химическая обработка, плазменное нитрование, время, поверхность металла, гетерогенный, металлографическое испытание, температура


Basic words: heat treatment, core, micron, chemical treatment, plasma nitration, time, metal surface, hetyerogeneous, metallographic testing. Tempyerature

